



XORAZM VILOYATIDA 2017-2021 YILLAR DAVOMIDA AVTOMOBILNI MAST HOLDA BOSHQARISHDAN SODIR ETILGAN YO'L TRANSPORT HODISALARI, ULARDAN O'LIM VA JAROHATLANISH KO'RSATKICHLARI

Jumaniyozov K.Y., Olimova M.M

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urgench filiali

Xorazm, Urgench

Tadqiqot maqsadi. Xorazm viloyatida 2017-2021 yillar davomida avtomobilni mast holda boshqaridan sodir etilgan YTH, ulardan o'lim va jarohatlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Xorazm viloyati yo'l patrul xizmatining 2017-2021 yillar bo'yicha avtohalokatlar to'g'risidagi hisobotlarida qayd etilgan ma'lumotlar doirasida o'r ganildi. Olingan ma'lumotlarni statistik taxlil qilishda ijtimoiy-gigienik va sanitariya statistik usullardan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Sodir etilayotgan yo'l transport xodisalarining sabablaridan biri transport vositasini mast holda boshqarishdir.

Jadval, 2017-2021 yillar davomida avtomobilni mast holda boshqaridan sodir etilgan YTH, ulardan o'lim va jarohatlanish ko'rsatkichlari

№	Yillar	Avtomobilni mast holda boshqarish dan YTH		Avtomobilni mast holda boshqarishdan o'lganlar soni		Avtomobilni mast holda boshqarish-dan jarohatlan-ganlar soni	
		Abs	%	Abs	%	Abs	%
1	2017	10±0,57%	20,4%	7±0,46%	22,6%	6±0,41%	19,3%
2	2018	8±0,51%	16,3%	4±0,37%	12,9%	4±0,37%	12,9%
3	2019	9±0,54%	18,4%	6±0,41%	19,3%	7±0,46%	22,6%
4	2020	13±0,69%	26,5%	7±0,46%	22,6%	8±0,51%	25,9%
5	2021	9±0,54%	18,4%	7±0,46%	22,6%	6±0,41%	19,3%
Jami		49	100%	31	100%	31	100%

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, viloyat bo'yicha 5 yil davomida transport vositalari egalari tomonidan avtoulovlarini mast holda boshqarish holatidagi qoidabuzarlik jami 49 ta holatda kuzatilgan. Bu jami qoidabuzarlikning (1343 ta) - 3,6% ni tashkil qiladi. Ushbu qoida buzarlik 31 nafar insonning umriga zomin bo'lib, jami yo'l transport hodisasidan vafot etganlarning (420 nafar) 7,4%ni tashkil qildi. Mast holda rulga o'tirishlar tufayli sodir bo'lgan YTHdan jami 5 yil davomida 31 nafar inson jarohatlangan va u jami 5 yil YTHlaridan jarohatlanishning (1067 nafar) -2,9%ni tashkil qiladi.

Xulosa. Eng ko'p avtomobilni mast holda boshqarishdan YTHlari 2020 yilda uchradi $13\pm0,69\%$. Eng kam avtomobilni mast holda boshqarishdan YTHlari 2018 yilda uchradi. Eng ko'p avtomobilni mast holda boshqarishdan o'lganlar 2017, 2020 va 2021 yillarda uchradi. Eng kam avtomobilni mast holda boshqarishdan o'lganlar 2018 yilda uchradi. Eng ko'p avtomobilni mast holda boshqarishdan jarohatlanganlar 2020 yilda uchradi. Eng kam avtomobilni mast holda boshqarishdan jarohatlanganlar 2018 yilda uchradi.